

## O‘SMIRLIK YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING MUHIM PSIXOLOGIK SIFATLARI

*Abdualiyeva Barno Yusufovna*

*Sirdaryo viloyati Shirin shahar Olim Xo‘jayev nomidagi*

*1-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarda munosabatlar shakllanishining muhim psixologik sifatlari yoritilgan. O‘smirlik davrida shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi, emotsional holatlar va ijtimoiy muhitning ta‘siri tahlil qilingan. Shuningdek, o‘smirlarda sog‘lom munosabatlarni shakllantirishda oila, maktab va psixologik xizmatning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘smirlik davri, munosabatlar, psixologik sifatlari, muloqot, emotsional rivojlanish, ijtimoiy muhit, o‘zaro hurmat, motivatsiya, psixologik yordam, shaxs rivojlanishi.

### KIRISH

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda o‘smirning dunyoqarashi, xarakteri va atrofdagilar bilan munosabatlari shakllanadi. Ayniqsa, tengdoshlar, oila a‘zolari va o‘qituvchilar bilan bo‘lgan munosabatlar o‘smir shaxsining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarda munosabatlar shakllanishining psixologik jihatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

O‘smirlik davrida o‘quvchilarda mustaqillikka intilish kuchayadi. Ular o‘z fikrini erkin bildirishga, atrofdagilar tomonidan hurmat qilinishga va jamoadagi o‘rnini topishga harakat qiladi. Shu sababli bu yoshda o‘quvchilar uchun tengdoshlari bilan munosabat juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Munosabatlar shakllanishida muloqot madaniyati muhim psixologik sifat hisoblanadi. O‘smirning boshqalarni tinglay olishi, fikrini to‘g‘ri ifoda etishi va muomala

madaniyatiga rioya qilishi sog‘lom munosabatlarning shakllanishiga yordam beradi. Muloqot ko‘nikmalari rivojlangan o‘smirlar jamoada o‘zini erkin his qiladi va ijtimoiy moslashuvi yuqori bo‘ladi.

Empatiya, ya’ni boshqalarning his-tuyg‘ularini tushuna olish qobiliyati ham o‘smirlik davrida muhim ahamiyatga ega. Empatiya rivojlangan o‘quvchilar boshqalarga nisbatan mehribon, hurmatli va samimiy munosabatda bo‘ladi. Bu esa sinf jamoasida sog‘lom psixologik muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘smirlarda emotsional barqarorlik ham munosabatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu davrda hissiyotlar tez o‘zgarishi sababli ayrim o‘quvchilar jahldorlik, tortinchoqlik yoki agressivlik holatlarini namoyon qilishi mumkin. Shu sababli o‘smirlarga emotsiyalarni boshqarish va nizoli vaziyatlarni to‘g‘ri hal qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish muhimdir.

Oilaviy muhit o‘smirning munosabatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning mehribonligi, farzandga bo‘lgan e’tibori va o‘zaro hurmatga asoslangan oilaviy munosabatlar o‘smirning ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Aksincha, oiladagi nizolar yoki e’tiborsizlik o‘smirning boshqalar bilan munosabatida salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Maktab muhitining ham o‘rni katta. O‘qituvchilarning o‘quvchilarga nisbatan adolatli va samimiy munosabati o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Turli jamoaviy tadbirlar, treninglar va psixologik mashg‘ulotlar o‘quvchilarda hamkorlik va o‘zaro hurmat hissini rivojlantiradi.

Maktab amaliyotchi psixologining faoliyati o‘smirlar o‘rtasidagi munosabatlarni sog‘lom shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Psixolog turli trening va suhbatlar orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyati, empatiya va nizolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa sinf jamoasidagi ijobiy muhitni mustahkamlashga yordam beradi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar ham o‘smirlarning munosabatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual muloqotning ortishi ayrim hollarda jonli muloqotning kamayishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli o‘smirlarda real hayotdagi sog‘lom muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir.

O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi Bu Yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. O'smirlik 10-11 Yoshlardan 14-15 Yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmokda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik Yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi Bu Yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga karab o'sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi. Og'iz bo'shlig'i va halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'prok darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazminrok bo'lib qoladi, do'rillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur'at bilan o'ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo'l suyaklarining o'sish sur'ati orqada qoladi. O'smirlarda bu xususiyat ularning beso'naqay xatti-harakatlarida, yurish-turishlaridagi qo'pollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo'ladi.

Fiziologik o'zgarish jinsiy etilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo'ladi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning

faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi. Ko'krak qafasi ham gavdaning bo'y o'sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o'smirlarning elkasi, ko'kragi tor bo'lib qoladi, bu esa o'z navbatida kislorod etishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod etishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur etadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo'g'onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o'smirda ba'zi qon bosimining ortishi ro'y beradi.

Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O'smirda ro'y beradigan biologik jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O'smirlik Yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy etilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy etilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri «**o'tish davri**», «**krizis davr**», «**qiyin davr**» kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu Yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S. Vigotskiy bunday holatni "psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik Yoshini ikki xil davrga - kichik o'smirlik davri va katta o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini "bola"lardan ajratib, endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamog'chidek bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta Yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining Yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi, ular o'zlarini [bilishga](#), maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, Shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir guruh tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirga o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o'ylab ko'rishga uni majbur qilmoqchi bo'lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o'z fikrida qat'iy turib himoya qilishi mumkin.

Bu davrda o'zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o'z xatti-harakatlarini o'zi tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o'smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar. O'smirda katta Yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'lmaganda katta Yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish, intilish paydo bo'ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo'lib ko'rinadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta Yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi

odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik yoshidagi o'quvchilarda munosabatlar shakllanishi murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Muloqot madaniyati, empatiya, emotsional barqarorlik va o'zaro hurmat sog'lom munosabatlarning asosiy psixologik sifatlari hisoblanadi. Oila, maktab va psixologik xizmatning hamkorligi asosida o'smirlarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish ularning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziev E. G. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2017.

2. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
3. Davletshin M. G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
4. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent, 2019.
5. Vygotskiy L. S. Psixologik rivojlanish asoslari. — Moskva, 2016.